


## 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 3 269 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 762 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 840 ta (25,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13 949 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 13 949 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 28,9 % savdo, 13,1 % sanoat, 9,8 % qurilish, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,4 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 22,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Umumiy soni, birlikda		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>11 109</b>	<b>13 949</b>	<b>125,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 395	1 758	126,0	12,6
Sanoat	1 337	1 825	136,5	13,1
Qurilish	1 035	1 367	132,1	9,8
Savdo	2 921	4 035	138,1	28,9
Tashish va saqlash	588	619	105,3	4,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	620	873	140,8	6,3
Axborot va aloqa	165	186	112,7	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	131	156	119,1	1,1
Boshqa turlari	2 917	3 130	107,3	22,5

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 145 ta), Sirdaryo (2 114 ta), Sayxunobod (1 138 ta) va Guliston (1 064 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (327 ta), Sardoba (587 ta) hamda Oqoltin (666 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 13 169 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 802 ta (27,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 28,9 % savdo, 13,2 % sanoat, 9,9 % qurilish, 12,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,4 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3 894 ta), Sirdaryo (1 910 ta), Sayxunobod (1 107 ta) Boyovut (1 041 ta) va Mirzaobod (1 022 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (303 ta), Sardoba (566 ta) hamda Oqoltin (645 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3 269 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko'pdir.


**Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (765 ta), Yangiyer shahri (290 ta), Sirdaryo (437 ta) va Boyovut (280 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (79 ta), Xovos (217 ta) hamda Sardoba (180 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 316 ta), sanoat (568 ta), qurilish (317 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (426 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (29 ta), axborot va aloqa (32 ta) hamda tashish va saqlash (62 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 11 073 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar–2 951 ta, oilaviy korxonalar-185 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–7 634 ta va boshqalar-303 tani tashkil etgan.




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)***Mas'uliyati cheklangan jamiyati****Xususiy korxonalar****Oilaviy korxonalar****Unitar korxonalar****Aksiyadorlik jamiyati****Boshqalar****Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 157 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 ta ga yoki 44,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 157 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (52 ta), Guliston shahri (36 ta), Yangiyer shahri (20 ta) va Sayxunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam esa Guliston (4 ta), Shirin shahri (4 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ning yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 103 tasi qo'shma korxonalar, 54 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**


	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>157</b>	<b>100,0</b>
Oqoltin tumani	3	1,9
Boyovut tumani	7	4,5
Sayxunobod tumani	10	6,4
Guliston tumani	4	2,5
Sardoba tumani	6	3,8
Mirzaobod tumani	8	5,1
Sirdaryo tumani	52	33,1
Xovos tumani	7	4,5
Guliston shahar	36	22,9
Shirin shahar	4	2,5
Yangiyer shahar	20	12,8

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda****Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 54 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Guliston shahar (15 ta yoki jamidagi ulushi 27,8 %), Sirdaryo tumani (8 ta yoki 14,8 %) va Yangiyer shahri (9 ta yoki 16,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (2 ta yoki 3,7 %), Sardoba tumani (2 ta yoki 3,7 %) va Guliston tumani (2 ta yoki 3,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida-4 ta, Turkiya Respublikasi-6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-9 ta, Qozog'iston Respublikasi-7 ta va Koreya Respublikasi-8 ta, Tojikiston Respublikasi-7 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (29 ta), savdo (11 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (2 ta) hamda qurilish (5 ta), tashkil etgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11 697 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 30,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 384 tasi (30,7 %) Guliston shahri, 1 647 tasi (14,9 %) Sirdaryo, 932 tasi (8,5 %) Sayxunobod hamda 863 tasi (7,8 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11 026 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 792 tasi (34,4 %)-savdo, 1 714 tasi (15,5 %)-sanoat, 1 299 tasi (11,8 %)-qurilish, 1 589 tasi (14,4 %)-qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 820 tasi (7,4 %)-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 570 tasi (5,2 %)-tashish va saqlash, 166 tasi (1,5 %)-axborot va aloqa sohasi, 106 tasi (1,0 %)-sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 970 tasi (8,8 %)-boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3 153 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 martaga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (724 ta), Sirdaryo (428 ta), Sayxunobod (250 ta) va Guliston tumanlari (261 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (74 ta), Sardoba (170 ta) hamda Xovos (212 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 316 ta), sanoatda (568 ta), qurilishda (317 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (424 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (28 ta), axborot va aloqada (32 ta) hamda tashish va saqlashda (62 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 199 tani tashkil etib, ulardan 185 tasi yoki 93,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 49,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,7 % yoki 79 tasi sanoat, 16,2 % yoki 30 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,7 % yoki 29 tasi savdo, 19,5 % yoki 36 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,3 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalarni soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>110</b>	<b>100,0</b>
Oqoltin tumani	25	22,7
Boyovut tumani	7	6,4
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	10	9,1
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	6	5,5
Sirdaryo tumani	21	19,1
Xovos tumani	3	2,7
Guliston shahar	28	25,5
Shirin shahar	1	0,9
Yangiyer shahar	9	8,1

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 110 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (28 ta), Sirdaryo (21 ta), Guliston (10 ta) va Oqoltin tumani (25 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta), Xovos (3 ta) hamda Mirzaobod (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %****Sanoat****Savdo****Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar****Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi****Boshqa turlari**

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 51,8 % yoki 57 tasi sanoat, 10,0 % yoki 11 tasi savdo, 10,0 % yoki 11 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,4 % yoki 29 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 1,8 % yoki 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi statistik registrlarni  
yuritish bo'limi Tel.:(67)236-86-37**